



THE ROLE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF JADID THINKERS IN EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Ilkhom Tuxtanazarov

Senior Lecturer, Associate Professor, Reserve Major
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jadid movement, patriotism, youth education, national values, scientific heritage, enlightenment, Uzbekistan.

Received: 09.03.25

Accepted: 11.03.25

Published: 13.03.25

Abstract: In the new Uzbekistan, the study of the Jadid enlightenment movement and its representatives has risen to the level of an important international scientific and practical project. Uzbek scholars have achieved great success in studying various aspects of the Jadid movement. The works of almost all Jadid writers have been published and presented to the public. Particular attention was paid to educating the younger generation and training specialists abroad. This article analyzes the role of the scientific heritage of Jadid thinkers in educating young people in the spirit of patriotism, emphasizing the importance of national consciousness and moral values for youth.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JADID MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSINING O'RNI

Ilxom To'xtanazarov

katta o'qituvchi, dotsent, zahiradagi mayor
FarDU
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jadid harakati, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ilmiy meros, ma'rifat, O'zbekiston.

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonda jadid ma'rifatparvarlik harakati va uning namoyandalari faoliyatini o'rganish xalqaro miqyosdagi muhim ilmiy-amaliy loyiha darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston olimlari jadid harakatining turli jihatlarini o'rganishda katta yutuqlarga erishdilar. Deyarli barcha jadid yozuvchilarining asarlari nashr etilib,

xalq ommasiga yetkazildi. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash va chet elda mutaxassislar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadid mutafakkirlari ilmiy merosining o'rni tahlil qilinadi hamda yoshlar uchun milliy ong va axloqiy qadriyatlarning ahamiyati yoritiladi.

РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

Ильхом Тохтамазаров

Старший преподаватель, доцент, майор запаса
Ферганского государственного университета
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Движение	Аннотация:
джадидов, патриотизм, молодежи, национальные ценности, научное наследие, просвещение, Узбекистан.	воспитание	В новом Узбекистане изучение джадидского просветительского движения и его представителей возведено на уровень важного международного научно-практического проекта. Узбекские ученые добились значительных успехов в исследовании различных аспектов джадидского движения. Были опубликованы и представлены общественности произведения почти всех джадидских писателей. Особое внимание уделялось воспитанию молодежи и подготовке специалистов за рубежом. В данной статье рассматривается роль научного наследия джадидских мыслителей в воспитании молодежи в духе патриотизма, подчеркивается важность национального самосознания и нравственных ценностей для молодежи.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda jadid ma'rifatparvarlikharakati va uning namoyandalari faoliyatini o'rganish xalqaro miqyosdagi muhim ilmiy-amaliy loyiha darajasiga ko'tarildi. O'zbek olimlari jadid ma'rifatparvarlik harakatining turli tomonlarini o'rganishda katta yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Qariyb barcha jadid yozuvchilarining asarlari nashr etilib, xalqqa taqdim etildi. Yangi usul maktabi, milliy matbuot, adabiyot va teatr tarixini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar maydonga keldi. Jadidlar tomonidan ayniqsa yosh avlodini o'qitish ishlari, xususan yoshlarni xorij mamlakatlarida o'qitib, turli mutaxassislarni tayyorlash ishlariga katta e'tibor qaratilib, bir qator xayriya tashkilotlari vajamg'armalar tashkil etildi. Ma'rifatparvar ziyolilardan Salim Tillaxonov shunday yozadi: "1922-yil o'qish masalasida Toshkentda tashkil etilgan "Ko'mak" uyushmasining

tashabbusi, Turkiston hukumatining ko‘magi, shuningdek, Buxoro jumhuriyatining g‘ayrati bilan Turkiston va Buxoro jumhuriyatidan 70 ga yaqin o‘quvchilarni Germaniyaga yuborilgan. Germaniyada Rossiyadan 10000, Yaponiyadan 4000, Turkiyadan 3000, Xitoydan 4000 talaba bor. Biroq 12 millionli Turkistondan atigi 70 ta talaba bo‘lishi bizni qanoatlantira olmaydi. Harakat qilib, kelgusiyillarda Yevropaning turli burchaklariga 70 minglab talabalarniyuborishimiz kerak. Biz kelajakda doktorlarni, adiblarni, faylasuflarni va yo‘lboshchilarmizni o‘z ichimizdan chiqarishimiz lozim”[1], – deb barcha e‘tiborni ilm olishga qaratib, kelajakda etuk kadrlar etishib chiqishini xohlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, ma‘rifatparvar milliy ziyoli, jadidlar xalqning madaniy salohiyatini oshirish, ayniqsa yoshlar tarbiyasi va ilm olishiga katta e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishgan va harakat qilishgan.

Vatan deganda insoniyat ko‘z oldida ona allasi, beshik izlari chizilgan zamin tushuniladi. Ajdodlarning yashagan joylari, ota-ona yurgan ko‘chalari, inson yashaydigan joy – Vatandır. “Vatan” so‘zidan vatanparvarlik tushunchasi kelib chiqqan. Vatanparvarlik – vatanni sevish, uni ardoqlash, unga xizmat qilish, uning mustaqilligi uchun fidoyilik ko‘rsatishdir. Insonlar vatan tuyg‘usini anglash orqalio‘zlarida vatanparvarlikni shakllantirishadi. Bu tuyg‘uni anglash insonni umri davomida Vatan manfaatlari yo‘lida jasorat va qahramonlik ko‘rsatib yashashga undaydi.

Tarixdan ma‘lumki, dunyoda Vatanni ozodligi uchun ko‘plab insonlar o‘z onlarini fido qilishgan. Shunday insonlar tufayli vatanparvarlik fazilati hozirgi kunga qadar eng buyuk qadriyatlardan biri hisoblanmoqda.

Vatanparvarlik tuyg‘usiga ega insonlardan biri Amerika Qo‘shma Shtatlarining birinchi Prezidenti Jorj Vashington XVIII asrda Shimoliy Amerikadagi ozodlik harakatlariga boshchilik qilgan. O‘sha paytda Amerika Yevropadagi yirik davlatlarga nisbatan ancha qoloq edi. Amerikaning armiyasi yo‘q edi. O‘sha vaziyatda yaxshi qurollangan Angliya armiyasiga qarshi chiqish qiyin edi. Lekin vatanparvarlik fazilatiga ega bo‘lgan Jorj Vashington bu murakkab vazifani bajarishiga ishongan. U ozodlik harakatiga rahbarlik qilgan. Dushman son jihatidan, shuningdek, harbiy ta‘minotdan qanchalik ustun bo‘lishiga qaramasdan, Jorj Vashington rahbarlik qilgan vatanparvar fazilatga ega bo‘lgan armiya g‘alaba qozongan. 1782-yili Angliya AQShning mustaqilligini tan olgan.

Vatanparvarlik borasida bizning o‘zbek xalqi ajdodlari ham har tomonlama ibratgamunosib meros qoldirishgan. Masalan, Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ulbosqinchilariga qarshi o‘n ikki yil davomida doimiy kurash olib borgan. Dushmanlar yurtga bostirib kirgan vaqtida Jaloliddin yigirma yoshli navqiron yigit edi. Uningotasi Alouddin Muhammad Xorazmshoh mamlakatning harbiy qudratini susaytirgan, kuchlar bo‘linib ketgan, buning natijasida uning qo‘shini mag‘lubiyatga uchragan. Shohning o‘zi Kaspiy dengizidagi orollardan biriga borib jon saqlashga

majbur bo'lgan Shafqatsiz janglarda ishtirok etolmasligini his qilgan Xorazmshoh to'ng'ich o'g'li Jaloliddinni taxt vorisi qilib tayinlagan. Mard va bahodir Jaloliddin o'z ukalari va 70 nafar otliq askari bilan yov qurshovida turgan Xorazmning qadimiy poytaxti – ko'hna Gurganjga kirib kelganida, uni ko'rib, xalqning ruhi ko'tarilib, vatanparvarlik hissi kuchaygan. Jaloliddin Gurganj va Xuroson o'rtasidagi sahroda o'zining 70 nafar askaribila dushmanni 700 kishilik qo'shiniga duch kelganida, ularni tor-mor keltirib, hozirgi Afg'oniston hududidagi G'azni shahri tomon chekingan. Chingizxon uning ortidan 45 ming kishilik qo'shin yuborganida, Jaloliddinning safiga ham vatanparvar yigitlar kelib qo'shilgan. Parvon degan joyda ikki o'rtada qaqshatqich jang bo'lgan. Jaloliddin qo'shini o'zidan har tomonlama ustun bo'lgan yov ustidan g'alaba qozongan[2].

Har bir millatning vatanparvarlik tuyg'ulari ularning afsonalarida, xalq og'zaki ijodlari, dostonlarda aks etadi. Milliy vatanparvarlik, milliy g'oyalar asosida shakllangan dostonlardan biri bo'lgan «Alpomish»ning o'rni bo'lakchadir. Xalqning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpoish» ana shu dostonning shoh bayti. Bu qadrlil va mumtoz asardatarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlarini engib chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtning bag'rikenglik, matonat, oliyjanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlar o'z ifodasini topgan.

O'tgan asrning 50-yillarida, milliy merosning ko'pnamunalari kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhida asar sifatida qoralangan edi. O'sha og'ir yillarda fidoyi ziyolilar jasorat ko'rsatgan, uni saqlabqolishga muvaffaq bo'lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslash kerak. Bu o'lmas asarni xalq asrlar davomida yaratgan, o'z imon e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlar «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak, xalq bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot. Chunki bu doston ma'naviy boylikni aks ettirib, tarixiy ildizlari chuquqligini, xalq qanday ahvolda shakllanib, rivojlanganini, qiyinchiliklarni xalq bir-biriga elkadosh bo'lib engganini tasvirlab beradi [3].

Shu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Otobobolarning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q-yoy – hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish etti yoshida o'n to'rt botmon birichidan – bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, «alp» degan unvonga sazovor bo'lgan. Alp degani – hokimiyat egasi degan ma'noni anglatadi. Bir so'z bilan aytganda, xalqning engilmas bahodiri – Alpomish timsolida Vatanni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asraydigan, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlar – bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'rish mumkin.

Taniqli o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy «Guliston yoki axloq» kitobida bunday deb yozgan: "...Bizlar na uchun harakat qilmaymiz, qimirlamaymiz? Boshqa millatlarning o'g'il-qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo'lida jonlarini fido qilib, qovushib, yugurishib, ko'zlarni qamashtirib turgan bir zamonda, bizlar hamon uyqudan, jaholatdan

boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz"[4] – deb yozgan. Munavvar qori, Abdulla Qodiriy kabi jadidlar ham o'z asarlarida vatanparvarlik tuyg'usini aks ettirishgan.

Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun kuni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV Qurultoyida “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”, – degan jumalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi “Yoshlar Ittifoqi” tashkilotini qayta tashkil etib, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berar ekan, “Yoshlar bizning kelajagimiz”, – degan fikrlari bejizga aytilmagan. O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida, yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, ekstremizm, terrorizm, “Ommaviy madaniyat” va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish etib belgilangan.

Hozirda Yangi O'zbekistonda yoshlar salmog'i ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, hukumat tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e'tibor tufayli ularning turli fan olimpiadalari, sport musobaqalarida va butun jahon arenalarida yuqori pog'onalarni egallab kelayotgani bunga yorqin misol bo'la oladi. Darhaqiqat, bugungi islohotlarning asosiy qismi yoshlarga qaratilgan bo'lib davlat rahbari tashabbusi bilan tashkil etilayotgan eng katta ishlardan biri bu uchinchi renessans poydevorini qurishda yoshlarning o'rni va ro'lining oshishidir. Albatta, bunday ishlar zahirida asosiy tayanch bo'lib xizmat qiluvchi omillardan biri bujodlarning qoldirgan ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish, saqlab qolish va kelajak avlodga etkazish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Shu o'rinda alohida takidlash kerakki, tarixda ajdodlar qoldirgan ma'naviy meros hozirgacha qo'llanma bo'lib xizmatqilib kelmoqda. Butun dunyo ham bu manbalardan foydalanib kelmoqda. Bu borada jadid allomalarning xizmati ham salmoqlidir. Ular o'z ta'limot va dasturlarida ham eng birinchi o'ringa qo'ygan va e'tibor bergan masala bu yosh kadrlar bo'lgan. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan birga o'z asarlarida ham yosh avlodni vatanga bo'lgan muhabbat hissi bilan chambarchas bog'lab qo'ygan.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, jadid allomalari xoh shoir bo'lsin xoh yozuvchi, qo'yinki siyosiy sohada faoliyat yuritgan bo'lsin, ularning diqqat e'tiborida faqat yoshlar turgan. Bunga misol sifatida chin murabbiy, jurnalist va maorif xodimi Mannon Abdullayev ma'rifatparvar va otashin publitsist, maorif etakchi (Ramziy)ni ko'rsatib o'tish mumkin. Mash'um 1937-yil xalqning juda ko'p asl farzandlarini tuhmat, hasad bilan bag'ridan yulib ketdi. Ular o'z vaqtida xalqi, yurti uchun qilgan xayrli ishlari evaziga ko'rgan azob-uqubatlari, fojiali qismatlari va oilalarining sarson-sargardonligi etmagandek, nomlari xalq orasida badnom qilindi. Natijada, xalq o'z

farzandlarining nomini tilga olishdan, yozgan asarlari-yu, qilgan xizmatlarini o'rganishdan cho'chib, uzoq yillar dilidagini tiliga chiqarolmay yurdi. Zotan, ana shunday fidoyi insonlardan biri, Mannon Abdullayev Ramziydir. O'tgan asrning 20-30-yillar matbuotida Ramz, Ramziy taxallusi bilan tanilgan Mannon Abdullayev nomi istiqlool arafasida ayrim manbalarda yana tilga olina boshladi [5].

Ramziy publisistikasidagi etakchi mavzularni ham shu ma'noda ta'lim-tarbiya, qishloq va bolalar turmushi, iqtisodiy muammolar tashkil etadi. Ramziyning matbuot va maorif sohasidagi ko'p yillik tajribasi va to'plangan ma'lumotlari ularga asos bo'lib xizmat qilgan. Shu boisdan ham uning publisistikasi maqolalari aniq fakt va raqamlarga asoslangan bilan ajralib turadi. Adibning "Xotin qizlarimiz erkli turmushga chiqsunlar", "Chin ta'lim-tarbiya egalari etishadir" kabi maqolalarida asosan yoshlar to'g'risida fikr yuritilgan, tarbiyachilarning mas'uliyatli vazifasi ta'kidlana turib, bolalarning o'qishi va bilim olishiga mon'elik qiluvchi illatlarni ochishga harakat qilingan. Xususan, muallifning maorif va madaniyat sohasidagi o'zgarishlarga oid qarashlari ahamiyatga molik. U qishloq bolalarining maktablarga kam (shaharlik bolalarning 51,3 foizi bo'lgani holda, qishloq yoshlari 9,1 foiz) jalb qilinishi sabablari, ijtimoiy ahvol va iqtisodiy qiyinchiliklar to'g'risida tashvishlanib yozadi: "Batrak – kambag'allarning bolalari yoshlikdan otalari yonida dastyorlik qilib, ularning ishlariga ko'maklashib ketadilar. Yohud oyoq kiyim, ust kiyim bo'lmag'onidan, maktabga yozilgan bo'lsalar ham qatnolmay qoladilar" [6]. Muallif bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun ularga moddiy yordam ko'rsatish, mahalliy buydjetdan ma'lum miqdorda (bir yilga 150 ming so'm) mablag' ajratilishini taklif etadi. Shuningdek, maqolada uzoqdan qatnaydigan bolalarni aravalarda keltirib, qaytib olib borib qo'yish, internatlar yonida yotoqxonalar barpo qilish kabi o'rinli takliflar ham ilgari surilgan. Publisist qator dalil va raqamlar asosida millat bolalari ma'naviyatidagi kemtiklikni oydinlashtirish barobarida xalq maorifikomissari sifatida amaliy yordam ham bera olgan. Bu bilan o'z qarashlarining amaliy mohiyatini kuchaytirishga erishgani adib publisistikasining xalqchilligini ta'minlovchi dolzarb xususiyatga aylangan [6. 62-63].

O'zbek bolalari uchun maxsus yaratilgan ilk alifbo Saidrasul Aziziyning 1903 yilda chop etilgan "Ustodi avval"i bo'lsa, undan keyin 1917 yil oktabrgacha o'zbek ma'rifatparvarlarining ellikka yaqin nomdagi alifbo va o'qish kitoblari chop etiladi [7].

Xususan, O'rta Osiyo jadidlari otasi hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiy xalq taqdirini, ona vatan qismati haqida har doim qayg'urgan. Ko'p maqolalarida ham yosh avlodga maslahatlari ayniqsa xalqqa sergak turishga, jipslik bilan harakat qilishga chorlab, ona vatanga sidqidildan xizmat qilishdek ulug' burchni maqsad qilib olgan. Misol tariqasida, Behbudiy "Xurshid" gazetasida sovetlar hukumati hokimyat tepasiga kelmasidan oldin yozgan maqolasida, sotsialistlar hokimyat tepasiga kelsa, ne hol bo'lishini batafsil bayon qilar ekan: "Sotsialistlarning

programmasi, Behbudiyning fikricha, islom qoidalariga zid bo'lgani uchun musulmon mehnatkashlar bu partiyadan qochishlari kerakligini. Ularning programmasi, deydi Behbudi, – hozir amalga oshishi mumkin bo'lmagan hayolotdan iboratdir. Agar bir falokat bo'lib, ularning programmasi amalga oshib qolsa, qiyomat bo'lishi mumkinligini"[8] o'z qarashlarida bayon qilib Turkiston aholisini va yoshlarni xushyorlikka vatanni asrab avaylashga chaqiradi.

O'zining ta'limiy axloqiy asarlari bilan o'zbek publisistikasi namoyondasi Abdulla Avloniy ham bir qator asar va maqolalarida ona vatanni sevib ardoqlashga faqat yoshlar emas barcha qatlam vakillarini yakdillikka chorlagan. Bu borada esa shunday fikrlarni keltirgan: "Vatan – har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar mamlakatini shu kishining vatani deyдилar. Har kim tug'ilgan, o'sgan erini jonidan ortiq sevadi. Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq sevganimiz kabi, arablar Arabistonlarini – qumlik, issiq cho'llarini, eskimoslar shimol taraflarini – eng sovuq, qor va muzlik erlarini boshqa erlardan ziyoda sevadilar. Agar sevmasalar edi, havosi yaxshi, tirikchilik oson erlarga o'z vatanlarini tashlab, ko'chib ketar edilar" [6/ 168].

Darhaqiqat, insoniyat tarixida shunday daholar bo'ladiki, ular o'zlarining bor aql-zakovatlari, hatto hayotlarini ham xalq turmushini yaxshilashga, uningertangi kunini charog'on qilishga, ma'rifatini oshirishga bag'ishlashadi. O'zbekiston tarixida bunday daholar ko'pchilikni tashkil qiladi. Mamlakat tarixida bag'rikenglikka oid g'oyalar rivojlanishining eng muhim bosqichlardan birini XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragini o'ziga qamrab oladigan davr tashkil etadi. Uning xususiyat va mavqeini O'rta Osiyo shu vaqtda kechgan yirik va keng ko'lamli tarixiy jarayon va voqealar belgilaydi, ular esa o'z navbatida tarixiy-falsafiy tafakkurda bag'rikenglik va yoshlar muammolariga alohida e'tibor qaratgani, ularning chambarchas, uzviy bog'langanliklarini taqozo etdi [9]. XIX asrning 60-70-yillarida Turkiston Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlaka sifatida uning tarkibiga kiritildi. Buxoro va Xiva xonliklari ma'lum mustaqilliklarini saqlagan bo'lsada, aslida yarim mustamlaka edi. Bu mintaqa keyingi hayotining hal qiluvchi omillaridan biri bo'lib, unda yangi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jarayonlar vujudga keldi. Rossiya hukumati mahalliy xalqlarni iqtisodiy va siyosiy qoloqlik va qaramlikda saqlashga harakat qildi. Shu bilan birga u o'z mustamlakasidan to'liq va har tomonlama foydalanish, xom-ashyolarga ega bo'lish, o'lka xalqlarini itoatda saqlash, uning ahvolidan xabardor bo'lib turish maqsadida Turkistonga sanoat vama'daniyat vositalarini olib kela boshladi. Bu vositalar mustamlakachilik zulmi va siyosatini mustahkamlash uchun xizmat qilishi nazarda tutilgan edi va ular ob'yektiv ravishda Turkistonning Yevropa madaniy hodisalari bilan aloqada bo'lishiga, bu erda o'zgacha yangi shahar madaniyati yutuqlarining kirishi va tarqalishiga olib keldi [10]

O'sha davrda Turkistondagi tarixiy-madaniy jarayonga qarab ma'rifatparvarlik o'z rivojlanishida qator bosqichlardan o'tib, o'zining eng yorqin va o'ziga xos yangi ko'rinishini

jadidchilikda topdi. Dastlabki ma'rifatchilik vakillari xalqni asosan yangi madaniyat, ma'rifatga chaqirgan bo'lsa, jadidchilik keng ijtimoiy-ma'rifiy harakatga aylanib, o'z oldiga jamiyatni isloh qilish, mustaqillikka erishish, qoloqlikdan qutulish, o'lka xalqlarining jahon madaniyatida qadim tarixiy mavqesini tiklash bilan bog'liq vazifalarni qo'ydi. Ushbu davrning dastlabki ma'rifatparvarlari qatoriga Ahmad Donish, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi mutafakkirlarni kiritish mumkin. Turkiston jadidchiligi harakatining asoschilari va g'oyaviy rahbarlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ayniy, Hamza va boshqalar tashkil etadi[11].

Fitratning boy va ko'p qirrali faoliyati falsafa hamda boshqa bir necha sohalarda o'chmas iz qoldirdi. U davlat va jamoat arbobi edi. Fitratning xizmatlaridan biri shundan iboratki, u XX asr birinchi yarmidagi o'zbek ma'rifatparvarligining cho'qqisi bo'lib chiqqan jadidchilik harakatining asoschilari va eng faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. U ma'rifatchilik, ilm-fanni qo'llash va rivojlantirish muammolarini ham uslubiy-nazariy, ham amaliy nuqtai-nazardan hal qilishga katta hissa qo'shdi. U yoshlarning ijtimoiy faolligi va bag'rikenglik g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning butun hayoti va qarashlariga singib borishini belgiladi.

Fitratning bag'rikenglik va yoshlar faolligi masalalariga bo'lgan munosabati, uning dunyoqarashi, jadidchilik ta'limoti mustaqillik uchun kurashdan kelib chiqqani, ular bilan chambarchas bog'liq bo'lgani nuqtai-nazaridan yana ham chuqur va kontseptual ravishda o'rganilishi lozim. Fitratning shu bilan bog'liq qarashlari, uning dunyoqarashi tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'z navbatida uni belgilaydi, unga ta'sir etadi. Fitrat xalq, mamlakat, millat taqdiri, qismati haqidagi taassurotlarini quyidagicha umumlashtiradi: “Ellik yildan beri ezildik, taxqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, erimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyruqqa bo'ysundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik”[12]. Ilm-fan boshqa bir necha omillar bilan birga inson, jumladan yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashi – uning asosiy vazifalari qatoriga kiradi, chunki jamiyat, millat, xalqning rivojlanishi, taraqqiy etishi avvalo har bir insonning, jamiyat a'zosining ma'naviy darajasiga bog'liq.

Yoshlarda bag'rikenglik xususiyatlari rivojlanishi uchun “usuli jadidning” quyidagi xislati muhim ahamiyat kasb etadi. “Demak, tahsilangiz uchun yangi bir usul topingki, ham qadimgi ilmlar, ham yangi fanlarni kamoli osoyish bilan o'n ikki yil davomida o'n sakkiz yoshda xatm qilib, undan so'ng islom muhofazasining asbobini hozirlamoqqa kirishing. Demak, sobit bo'ldi-ki, usuli jadida shunga ko'ra bid'ati hasanadir va joizdir, lozim va vojib hamdir” [12. 90-91].

Fitrat yoshlarning ijtimoiy faolligi va bag'rikengligi muammolarining yana bir muhim tomoniga alohida e'tibor beradi. U ham bo'lsa ayollarning o'sha davrdagi mavqei va yangi

ta'limning ushbu muammoni hal qilishdagi ahamiyatidir. Ko'pchilik mutaassiblarning fikricha, "maktab va madrasalarda tahsil usulig'oyat uzoq" bo'lgani uchun va ba'zi bir boshqa sabablarga ko'ra qizlar, ayollar ta'limdan mahrum bo'lishlari kerak edi. Fitrat shu g'oyaga qarshi chiqdi, uni qoraladi. "Sizlarning maktab va madrasangiz tahsil usuli g'oyat uzoqdir, shu sababdan bechora ayollar ular uchun ham farzi ayn bo'lg'an ilm va irfon sharafini qo'lg'a kiritishdan mahrum qolmoqdalar. Ikkinchi: ular ilmsiz qolmoqdalar, har (bir) ilmsiz tarbiyasiz bo'lg'ani kabi, ular ham tarbiyasiz bo'lib qoladilar"[12. 198], – deydi mutafakkir.

Fitratning adabiy merosi boy va rang-barang. Ma'rifatparvar olim tarixshunoslik va sharqshunoslik sohalariga oid maqola va risolalar ham yozgan. 1930-yilda yozilgan "Amir Olimxonning kechmishi" risolasi (fors tilida) shular jumlasidandir. 1921-yilda Bo'lat Soliev bilan birga amirlik davriga tegishli nodir qo'lyozmalar, vaqf hujjatlarini yig'ish, ularga tartib va tavsif berishda ishtirok etdi. B.S.Sergeyev bilan birga V.L.Vyatkin arxivida saqlangan hujjatlarni o'rganib, 1937 yilda rus tilida "Kaziyskie dokumento" kitobini nashr etdi. Fitrat "Najot yo'li", "Oila" va "Mavlidi Sharif yoki Mur'oti xayr-ul bashar", "O'quv", "Sharq siyosati" va "Yig'la, islom", "Muxtasar islom tarixi" singari ijtimoiy-huquqiy, diniy va ma'rifiy asarlarini e'lon qildi [13].

Fitrat yozuvchi sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o'zbek adabiyoti, she'riyatining yangi janrlar bilan boyishi, teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog'liq muhim ijtimoiy muammolarining o'zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo'shdi. Zullisonayn shoir, ya'ni fors-tojik va o'zbek tillarida ijod qilgan Fitrat barmoq vaznini Cho'lpon bilan birga yozma adabiyotga olib kirdi va unga yangi hayot bag'ishladi. U "O'zbek yosh shoirlari" (1922) she'riy majmuasining tuzuvchisi va asosiy muallifidir. O'tgan asrning 20-yillarida Fitrat sof nasriy asarlarni yarata boshladi. "Qiyomat", "Me'roj", "Oq mozor", "Zayd va Zaynab", "Zahroning imoni" va boshqalar shular jumlasidandir. Bu asarlar ayniqsa, 1930-yilda qayta ishlangan "Qiyomat" hayoliy hikoyasi hozirgi o'zbek adabiyotida fantastika janrining shakllanishida milliy manba bo'lib xizmat qildi. Fitrat dramaturg sifatida 1916-yildan boshlab teatr uchun "Begijon", "Qon", "Abo Muslim", "Temur sag'anasi", "O'g'izxon" singari pesalarni, "Arslon" va "Sho'rishi Vose", "To'lqin" operasi, "Chin sevish", "Shaytonning Tangriga isyoni", "Hind ixtilofchilari" va boshqa ko'plab asarlarni yaratdi. Bular orasida "Abulfayzxon" fojeaviy asari o'zining shekspirona epik ko'lami bilan ajralib turadi. Fitrat bu asari bilan o'zbek adabiyotida tragediya janriga asos solib, mazkur janrning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Fitratning yana bir qirrası tilshunos olim ekanida namoyon bo'ladi. U o'zbek tili grammatikasini o'rganish ishini boshlab bergan va shu soha rivojiga katta hissa qo'shgan. U 1918-yilda Q.Ramazon va Sh.Rahimiy bilan hamkorlikda "Ona tili" darsligini yaratdi. "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf" (1925), "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Nahv" (1926)

darsliklarini yaratdi. Olim o'zbek tili morfologiyasi va sintaksisiga bag'ishlangan bu asarlari bilan o'zbek tili grammatikasini ilmiy asosda o'rganish ishiga tamal toshini qo'ydi. Fitratning tilshunoslik sohasidagi katta xizmatlaridan yana biri uning 20-yillarda qadimiy turkiy til, jonli xalq tili va shevalargatayangan holda, ilmiy-madaniy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha hamda hodisalarni ifodalash uchun o'zbek tilining lug'at fondiga yangi so'z va atamalarni ko'plab olib kirganidir [14].

Adabiyotshunos olim sifatida Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (1927), "O'zbek adabiyoti namunalari" (1928) tazkiralari tuzib, milliy adabiy merosning eng qadimiy davridan so'nggi davrlarga qadar yaratilgan namunalarni to'plab, muayyan tizimga soldi. "Qutadg'u bilig" singari o'zbek yozma adabiyotining xalq orasida sochilib yotgan noyob yodgorliklarini qo'lga kiritish, o'rganish va chop etishga intildi [15]. "Bedil (Bir majlisda)" (1923), "Navoiyning forsiy shoir ekani va uning forsiy devoni to'g'risida", "Qutadg'u bilig" (1925), "Ahmad Yassaviy" (1927), "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar", "Hibbat ul-haqoyiq", "O'zbek shoiri Turdi" (1928), "XVI asrdan so'ng o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash", "Muhammad Solih", "Fors shoiri Umar Xayyom" (1929), "Mashrab", "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida" (1930) kabi katta ilmiy qiymatga ega risola va maqolalar yaratdi. Fitrat bu tadqiqotlari bilan o'zbek adabiyotshunoslik faniga poydevor qo'ydi. Fitratni adabiyot nazariyasi fanining asoschisi, deyilsa, – mubolag'a bo'lmaydi. "She'r va shoirlik" (1919), "Adabiyotqoidolari" (1926), "San'atning manshai" (1927), "Aruz haqida" (1936), singari maqola va risolalari bilan adabiyot nazariyasi faniga asos soldi [16]. Fitrat 1921-yilda Buxoroda Sharq musiqa maktabini tashkil etib, o'zi maktabning birinchi direktori bo'lgan. U o'z uyini maktab tasarrufiga evazsiz berib, "Shashmaqom" kuylarini to'plash va notaga yozib olishishlariga rahbarlik qildi. Fitrat tashabbusi bilan rus kompozitori V. Uspenskiy Buxoroga taklif etilgan edi. 1924-yilda kompozitor tomonidan Jalol ota G'iyosov ijro etgan Buxoro Shashmaqomi ilk bor notaga olinib, nashr etildi. San'atshunos Fitrat "Shashmaqom", "O'zbek musiqasi to'g'risida" maqolalari va "O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi" (1927) risolasi bilan XX asr o'zbek musiqashunoslik fanini boshlab berdi.

Jadid ma'rifatparvarlarining yuqoridagi va bundan boshqa barcha asarlarida asosiy g'oya yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi aks etgan. Darhaqiqat, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda xalqning tarixiy merosi katta ahamiyatga ega. Shu sababli tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodlarga qoldirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mingnarov A. Madaniy jarayonlar va ta'lim masalalarining Turkiston milliy matbuotida yoritilishi. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. – Toshkent. – B. 119-124.

2. X. Sultonov, M.Qarshiboyev. Vatan tuyg‘usi. – Toshkent Ma’naviyat. 2015. – B. 37-45.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 82.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 102.
5. Jamilova B. Vatan armon, istiqlol orzu. Jadid ma’rifatparvarlikharakatining g‘oyaviy asoslari. – Toshkent. – B. 54.
6. Jadid ma’rifatparvarlarining milliy ta’lim, matbuot, adabiyot va san’atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va uning Milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. mavzuyidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent. 2016. – B. 54.
7. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Toshkent: 2010. – B. 147.
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 67.
9. Fayzulla Xo‘jaev. Buxoro inqilobi tarixiga materiallar. – T.: Fan. 2020. – B. 32.
10. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. – Toshkent, Fan. 1996. – B. 155.
11. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston Chor Rossiyasimustamlakachiligi davrida. – Toshkent, Sharq. 2000. – B. 148.
12. Abdurauf Fitrat. Muhtoriyat // Tanlangan asarlar. 3-jild. – T.: Ma’naviyat. 2003. – B. 198.
13. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. To‘plam. – Toshkent. Universitet. 1999. – B. 125.
14. Yunusova X. 1892-yil Toshkentdagi xalq qo‘zg‘oloni. – Toshkent, 1998. – B. 49.
15. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. – Toshkent. Fan, 1996. – B. 92.
16. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. To‘plam. – Toshkent. Universitet. 1999. – B. 196.